

5-10-2019

PEDAGOGICAL FACTORS IMPROVING THE QUALITY OF PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ART

Fozildjon Pulatov
Quqon DPI

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Pulatov, Fozildjon (2019) "PEDAGOGICAL FACTORS IMPROVING THE QUALITY OF PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ART," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 2 , Article 57.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss2/57>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

PEDAGOGICAL FACTORS IMPROVING THE QUALITY OF PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ART

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Po'latov Foziljon Usubjanovich
Qo'qon DPI

***Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak tasviriy san'at oqituvchilarini professional kompetensiyaga ega mutaxassis qilib tayyorlash borasida mavjud ayrim muammolar va ularni yechimi bo'yicha metodik yo'nalishda takliflar keltirilgan. Shuningdek, maqolada bo'lajak tasviriy san'at oqituvchilarini tayyorlash borasida oliy pedagogik ta'lim sohasida amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar, o'qituvchining samarali pedagogik faoliyat ko'rsatishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** zamonaviy yondashuv, ilg'or texnologiya, tendensiya, rassom-pedagog, tasviriy san'at, madaniyat, ta'lim tizimi, badiiy ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, kreyativlik, kasbiy kompetentlik.*

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ УЛУЧШЕНИЕ КАЧЕСТВА ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЯ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Пулатов Фозилжон Усубжанович

***Аннотация.** В данной статье даны некоторые предложения методического характера по подготовке учителей изобразительного искусства, даны рекомендации по решению имеющихся проблем. Также, в статье проанализированы факторы, отрицательно влияющие на эффективность педагогической деятельности учителя изобразительного искусства, определены задачи высших учебных заведений по подготовке учителей изобразительного искусства*

***Ключевые слова:** современный подход, передовые технологии, тенденции, педагог, изобразительное искусство, культура, образовательная система, художественное образование, профессиональная подготовка, креативность, профессиональная компетенция.*

PEDAGOGICAL FACTORS IMPROVING THE QUALITY OF PREPARING FUTURE TEACHERS OF FINE ART

Pulatov Fozildjon Usubdjanovich

***Abstract.** In the given article were brought some methodical offers on preparing teachers-artist, and also were given recommendations on solving the given problems, also was analyzed the factors which are negatively influenced on efficiency of pedagogical activity of teacher of applied art, was determined the tasks of higher education on preparation the teachers of the teacher of applied art.*

***Key words:** modern approach, innovated technologies, tendency, teacher of art, applied art, culture, educated system, education of applied art, professional preparation, creativity, professional competency.*

O'zbekistonning taraqqiyoti bevosita malakali kadrlar tayyorlash hamda jamiyatimizning barcha sohalaridagi zamonaviy texnologik jarayonlar bilan bog'liqdir. Ayniqsa, ta'lim sohasida, xususan, badiiy pedagogika sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar alohida e'tiborga molik. Zero, badiiy ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar jarayonga ijodiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qitiladigan tasviriy san'at o'quv fani nafaqat ta'lim taraqqiyotining zamonaviy tendensiyalari bilan, balki Vatanimiz tarixi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy voqealar bilan chambarchas bog'liqligi bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashni zamon va jahon andazasiga moslashtirish jarayonini bevosita tarixiy sharoit hamda o'lkada sodir bo'layotgan hodisalar bilan birgalikda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlab o'tilganlarga qo'shimcha tarzda e'tirof etish joizki, O'zbekiston madaniyati va san'ati, jumladan, tasviriy va amaliy san'ati borasida mutaxassis kadrlar tayyorlashda o'ziga xos pedagogik qadriyatlar tizimiga ega.

Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynovchi sub'yektlar sirasida o'qituvchi va uning roli yuqori qadrlangan. Yurtimizda asrlar davomida o'qituvchi shaxsiga nisbatan alohida hurmat ko'rsatilgan. O'z navbatida, uning kasbiy tayyorgarligiga katta e'tibor berilgan va unga yuksak talablar qo'yilgan. Ana shunday talablar mohiyati ilk yozma manba sanaluvchi "Avesto", Islom dinining muqaddas manbalaridan biri bo'lgan hadislarda, shuningdek, ulug' mutafakkirlar – Abu Nasr al Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslixiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va boshqa ko'plab allomalar tomonidan yaratilgan asarlar mazmunida ham o'z ifodasini topgan.

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki yillardan boshlab barcha sohalarda, ayniqsa, ta'lim tizimini isloh qilish borasida juda katta ijobiy o'zgarishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda tarbiyaning boshqa turlari qatorida estetik tarbiyaning va uning tarkibidagi tasviriy san'at ta'limining ahamiyatiga katta e'tibor qaratilgan. Zero, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Hozirgi kunda milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi"[1,147].

Shu ma'noda uzoq tarixga ega bo'lgan badiiy ta'limning asriy qadriyatlarini rivojlanishning zamonaviy tendensiyalari asosida taraqqiy etib borayotgan badiiy ta'lim tizimi kontekstida umumiy o'rta ta'lim bosqichida tasviriy san'atni o'qitishga alohida e'tibor bilan qarashni taqozo etadi. Tasviriy san'at ta'limining sifat va samaradorligi esa bevosita o'qituvchining kasbiy kompetentligiga bog'liq. Shuning uchun ham umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalaridagi

o'quv jarayoni, uning mazmuni va metodikasini bugungi kun ijtimoiy-pedagogik talablari asosida takomillashtirib borish talab etiladi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan kuzatishlar va manbalarni tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga tasviriy san'at fanidan saboq berayotgan o'qituvchilarining kasbiy bilimlari zamon talablari darajasida shakllanmagan. Buning bir qancha omillari mavjud.

Birinchidan. Tasviriy san'at ta'limining amaliyotdagi holatini, shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchilarining pedagogik faoliyatini tahlillari shuni ko'rsatadiki, ayrim tasviriy san'at o'qituvchilari ongida men rassom emasman, men tasviriy san'at o'qituvchisiman men rasm chizishni bilishim shart emas, nazariy bilimlarni bilsam bo'ldi, degan noto'g'ri tushuncha bor. Shu sababli ular amaliy malakalarini rivojlantirish borasida o'z ustilarida ishlamaydilar. Vaholanki, maktab o'quvchilariga tasviriy san'atga oid nazariy bilimlarni berishdan ko'ra ko'proq amaliy chizib ko'rsatilsa o'quvchilarda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortadi. Demak, tasviriy san'at o'qituvchisida nazariy tayyorgarlik bilan bir qatorda, amaliy-metodik mazmundagi kasbiy kompetensiya bo'lishi talab etiladi.

Ikkinchidan. Ayrim tasviriy san'at o'qituvchilari zamonaviy axborot- kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishni va turli xil interfaol metodlarni qo'llashni bilmasliklari sababli o'quvchilarga bilim berishda faqatgina maktab darsligi bilan chegaralanib qolmoqdalar. Bu esa o'quvchilarni jahon tasviriy san'at namunalari va yangiliklaridan bahramand bo'la olmasliklariga sabab bo'ladi.

Uchinchidan. Ayrim umumta'lim maktablarida tasviriy san'at faniga ikkinchi darajali fan sifatida qaralishi va unga yetarli darajada e'tibor berib sharoit yaratilmayotganligi ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga salbiy ta'sir etib fanga bo'lgan qiziqishlari so'nib bormoqda va natijada darslarni shunchaki yuzaki o'tish holatlari kuzatilmoqda.

Shuning uchun ham oliy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash, jumladan, tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash borasidagi muammolarni hal etishning nazariy va amaliy asoslarini taqdim etuvchi ilmiy xulosalar yaratish lozim.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli ma'ruzasida [2]: "Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak", – degan so'zlarini inobatga oladigan bo'lsak, oliy pedagogik ta'lim jarayoni oldiga pedagog kadrlarni, shu jumladan badiiy-estetik ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashni yanada yaxshilash vazifasini qo'yadi.

Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga ularni kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi tasviriy san'at turkumidagi barcha fanlar, xususan ixtisoslik fanlar blokiga kirgan akademik qalamtasvir asoslari va kompozisiya, dastgohli akademik rangtasvir asoslari va kompozisiya fanlarining nazariy asoslarini, amaliy jihatlarini mukammal o'rgatish va uni o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilish mazkur kasb egalarini kasbiy va pedagogik faoliyatga puxta tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash mazmuni va metodikasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada mahalliy hamda

xorijlik olimlarning tadqiqotlarida ilgari surilgan nazariyalarni zamonaviy g'oyalari, yondashuvlar bilan boyitgan holda qo'llash sohada mavjud muammolarni samarali hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash muammolari bilan bog'liq texnologik yondashuvlar B.S.Kuzin, A.A.Melik-Pashayev, B.M.Nemenskiy, N.Oydinov, Z.N.No'lyanskaya, N.N.Rostovsev, T.Ya.Shpikalova, B.P.Yusov kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Biroq, globallashuv jarayonida, bilim olish shakl va usullari yangi texnologiyalar bilan boyitilayotgan bugungi kunda yangi tadqiqotlar ko'proq qiziqish uyg'otadi. Shu ma'noda keyingi yillarda bajarilgan tadqiqot ishlarida bu muammoning yechimi sifatida yangi ilmiy xulosalar taqdim etib borilmoqda. Xususan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy shakllanishi (V.N.Bannikov), tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonini uzviylikini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlariga oid tadqiqotlar(N.N.Dolgix), qolaversa, D.E.Starchenko tomonidan oliy pedagogik o'quv yurtlarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini rangtasvir ob'ektlarini idrok etishga o'rgatish, A.P.Drozdov tomonidan esa tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash misolida qalamtasvir darslarida talabalarda badiiy idrok etish qobiliyatlarini rivojlantirish muammolari tadqiq etilganki, ulardan kelib chiqadigan xulosalarning amaliy yo'nalishda ustivor tarzda qarash orqali badiiy ta'lim amalyotida samarali foydalanish mumkin. Qolaversa O'zbekistonlik olimlardan B.Boymetovning bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini o'zbek milliy xalq amaliy san'ati namunalari asosida tayyorlash, J.Darmenovning mahalliy va o'lkashunoslik sohasidagi milliy san'at vositasida tasviriy san'at o'qituvchilari tayyorlashning nazariy asoslari, shuningdek, A.Sulaymonovning tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik jihatlariga oid ishlaridan badiiy ta'lim tizimida samaraliy foydalanib kelinayotgan bo'lsada ta'lim amalyotida qo'llaniladigan texnologiyalarning muttasil takomillashib borishi O'zbekiston sharoitida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, milliy-tarixiy negizlari hamda zamonaviy yondashuvlari mavjudligi bois ham bu yo'nalishda maxsus tadqiqot o'tkazishni taqazo etadi.

Yuqorida keltirib o'tgan mulohazalardan kelib chiqqan holda, rassom-pedagoglarni intellektual salohiyatli, yuqori kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassislar qilib tayyorlashda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ijobiy natija beradi:

Oliy ta'lim muassasalaridagi tasviriy san'at va muhandislik grafikasi va amaliy san'at yo'nalishlari uchun ixtisoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda zamonaviy jihozlangan ustaxona, o'quv laboratoriyalari tashkil etish.

Badiiy ta'limning o'ziga xosligi jarayonni individual tarzda olib borishga alohida e'tibor qaratishni taqazo qiladi, shu bois har bir talaba bilan individual ishlash imkoniyatlarini oshirish jumladan, kichik guruhlarda ishlash uchun yetarli sharoit yaratish.

Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi bo'yicha mukammal bo'lgan o'zbek tilidagi darslik, o'quv qo'llanma va metodik ishlanmalarni yetarli darajada yaratish, mavjudlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga ta'lim-tarbiya berayotgan professor-o'qituvchilarni ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganish uchun malaka oshirib kelish imkoniyatini yaratish.

Mutaxassislik fanlarini umumiy holatdagi o'rni va salmog'ini qayta ko'rib chiqish.

Yuqoridagi tadbirlar to'g'ri va o'z o'rnida tashkil etilsa, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining pedagogik faoliyatga tayyorlash bo'yicha kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun sohani rivojlantirish konsepsiyasini yaratish, unda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning zamonaviy, ilmiy amaliy asoslariga oid tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim muassasalarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash borasida mavjud muammolarni bartaraf etishning muhim omillaridan biri bo'ladi.

References

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.* – T: “Ma'naviyat”, 2008. –176 b.
2. Karimov I.A. *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.* –T.: Sharq. 1997
3. Oydinov N. *Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari.* – T.: “O'qituvchi” nashiryoti, 1997